



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA
XALQARO HAMKORLIK
MASALALARI**

**XALQARO ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**



2025-yil 18-oktabr



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA XALQARO HAMKORLIK
MASALALARI**

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

2025-yil 18-oktabr

Toshkent – 2025



**ALISHER NAVOIY MUALLIFLIK KORPUSINI YARATISHDA
STATISTIK MA'LUMOTLARNING MUHIMLIGI
THE IMPORTANCE OF STATISTICAL DATA IN CREATING THE
CORPUS OF ALISHER NAVAI'S AUTHORSHIP**

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025.18.10/AFGY6022

G‘ulomova Nargiza Sa’dullayevna
Filologiya fanlari doktori (DSc), dots v/b.
Navoiy innovatsiyalar universiteti
nargizagulomova099@gmail

Annotatsiya. *Jahonda mualliflik korpuslarini yaratish va qo‘llash ijtimoiy talabga aylanib bormoqda. Mualliflik korpuslari tadqiqotchilar uchun eng qulay axborot manbasi hisoblanishi bilan zamonaviy tilshunoslikda nazariy hamda amaliy yo‘nalishlarning muhim qismiga aylanib ulgurdi. Maqolada mualliflik korpuslari texnik jarayonni tezlashtiruvchi vosita bo‘libgina qolmay, muayyan muallif tilining turli shakllari axborot tizimiga kiritilgan, muallif haqidagi kutilmagan savollarga ham javob bera oladigan innovatsion tizim ekanligi haqida ma‘lumotlar yaratilgan. Yangi tipdagi Alisher Navoiy mualliflik korpusining takomillashda foydalanilgan statistik tahlillar maqolaning asosini tashkil etadi. Alisher Navoiy ijodi o‘zbek adabiyoti va tilshunosligining eng yirik yodgorliklaridan biri bo‘lib, asar tilining lug‘at boyligi, leksik birliklari, semantik qatlamlari va grammatik tarkibi nafaqat adabiy til, balki adabiyotshunoslik, matnshunoslik, manbashunoslik, san‘atshunoslik kabi bir qator fan sohalari uchun muhim ahamiyatga egadir.*

Kalit so‘zlar: *statistik tahlil, tavsiflash, korpusi, lingvistik ta‘minot, lug‘at, semantik kategoriya, g‘azal.*

Annotation. *Creation and use of author corpora is becoming a social demand in the world. Author corpora are considered the most convenient source of information for researchers and have become an important part of theoretical and practical directions in modern linguistics. The article provides information about author corpora not only as a means of speeding up the technical process, but also as an innovative system in which various forms of the author’s language are included in the information system and can answer even unexpected questions about the author. The basis of the article is the statistical analysis used in the improvement of Alisher Navoi’s authorship corpus of a new type. The work of Alisher Navoi is one of the greatest monuments of Uzbek literature and linguistics, and the richness of the vocabulary, lexical units, semantic layers, and grammatical structure of the language of the work are of great importance not only for literary language, but also for a number of scientific fields such as literary studies, textual studies, source studies, and art studies.*



Keywords: *statistical analysis, description, linguistic support, dictionary, semantic category, ghazal.*

So‘nggi yillarda o‘zbek korpus lingvistikasida leksik birliklarni modellashtirish, korpus matnlarini morfologik va semantik tahlil qilish, omonimlarni aniqlash, leksik birliklarni grammatik va semantik teglash masalalari o‘rganildi. Davlat tilining sofligini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirish, davlat tilining zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga faol integratsiyalashuvini ta‘minlash ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Milliy merosimizni zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimida keng qo‘llanishiga erishish, buning uchun ajdodlarimiz asarlarini yoshlar o‘rtasida targ‘ib etish, mumtoz adabiyot namunalari o‘qishli va tushunarli tarzda taqdim etuvchi filologik korpuslarni yaratish, jumladan, Alisher Navoiy mualliflik korpusini takomillashtirish va buning uchun Navoiy ijodiy merosini semantik teglash muhim vazifadir.


Navoiy g‘azallarni tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilish, ularning leksik birliklarini tasniflash va semantik bazasini yaratish orqali bir nechta ilmiy vazifalar hal qilinadi. Jumladan, g‘azallarda ishlatilgan leksik birliklar, ya‘ni so‘zlar, iboralar va murakkab so‘z birikmalari asosida nafaqat ularning aniq ma‘nolari, balki ularning kontekstual semantik qatlamlari aniqlanadi [Abjalova, 2022: 56]. Maxsus kompyuter dasturlari yordamida semantik bazasi yaratiladi va so‘z ma‘nolarining kontekstual bog‘lanishi chuqur tahlil qilinadi. Shuningdek, “Xazoyin ul-maoniy” asari leksik va semantik ma‘lumotlarining tizimli lingvistik ma‘lumotlar bazasi yaratiladi. Bu nafaqat til nazariyasi, balki kompyuter lingvistikasi, adabiyotshunoslik va lingvistik tarjimonlik sohalarida ham qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan yangi bilimlarni yaratadi.

Korpusni takomillashtirishdan ko‘zlangan asosiy maqsad quyidagilardan iborat edi:

1. Alisher Navoiy mualliflik korpusining innovatsion baza va ta‘lim resursi sifatidagi ahamiyatini oshirish;
2. Korpusning ta‘limiy ahamiyatini oshirish va mumtoz adabiyot materiallari asosida o‘quvchilarning lingvistik, adabiy-nutqiy, badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyalarini oshirish maqsadida “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotidagi g‘azallarning semantik bazasini yaratish;
3. G‘azallardagi izohtalab leksik birliklarning semantik tavsifini berish va ularning ma‘lumotlar bazasini shakllantirish;
4. Foydalanuvchilarning ma‘naviy va mental tafakkurini kengaytirish, tarixga oid bilimlarini oshirish maqsadida she‘riy san‘atlari mavjud baytlarni leksik-semantik tahlil qilish [Abjalova, 2023, 81];
5. Alisher Navoiy g‘azallari leksikasining mazmuniy semantik kategoriyalari tasnifini tuzish.

Yangi tipdagi Alisher Navoiy mualliflik korpusini takomillashtirishda asosan, *statistik metodga* tayanildi. Jumladan, “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotini mantiqiy

mezonlar asosida tartiblaganligini kuzatish mumkin. Kulliyotning har bir devonida 650 tadan g‘azal joylashtirgan bo‘lib, qofiyalanishiga ko‘ra arab alifbosi asosida, miqdori bo‘yicha qat‘iy tarzda tartiblagan. Jumladan, “alif” harfi bilan tugallanuvchi g‘azallar to‘rtala devonda ham 39 ta, “be” harfi bilan 27 ta, “pe” harfi bilan tugallangan g‘azallar 2 ta kabi joylangan:



1-chizma. “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotida g‘azallarning arab alifbosi tartibida joylashuvi.

Mutafakkir kulliyotni tartiblar ekan, har bir devonda bir xil radifli g‘azallar teng miqdorda kelishiga katta ahamiyat bergan. “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotida hammasi bo‘lib “Ango” radifli 12 ta g‘azal mavjud. Bu g‘azallar to‘rtala devonga uchtdan teng tarzda taqsimlangan va har bir devonning 8-9-10-o‘rinlarida joylashtirilgan. Shuningdek, kulliyotda “Manga” radifli g‘azallar jami 20 ta bo‘lib, har bir devonda beshtadan (11-12-13-14-15-o‘rinlarda), “Sanga” radifli g‘azallar esa jami 8 ta, har bir devonga ikkitadan (16-17-o‘rinlarda), “Aro” radifli g‘azallar beshtadan, jami 20 ta (18-19-20-21-22-o‘rinlarda) berilgan. Devonlardagi g‘azallarning bunday mutanosiblikda keltirilishi Navoiyning mantiqiy mulohazasi o‘ta kuchliligidan darak beradi.

“Xazoyin ul-maoniy”dagi 2600 ta g‘azalda 20003 bayt – 40006 misra (kulliyotda jami 294368 ta so‘z(shakl), g‘azallarda 266811 ta so‘z(shakl) mavjud bo‘lib, “G‘aroyib us-sig‘ar”da jami 4975 bayt – 9950 misra (devondagi so‘z miqdori: 75 ming 350 ta, g‘azallarda 66 954 ta), “Navodir ush-shabob”da 4998 bayt – 9996 misra (devondagi so‘z miqdori: 71 ming 527 ta, g‘azallarda 66 596 ta), “Badoye’ ul-vasat”da 5001 bayt – 10002 misra (devondagi so‘z miqdori: 71 ming 580 ta, g‘azallarda 66 539 ta), “Favoyid ul-kibar”da 5029 bayt – 10058 misra (devondagi so‘z miqdori: 75 911 ta, g‘azallarda 66 722 ta) mavjud. Ijodkor uslubini aniqlashda matnning statistik tarkibi muhim hisoblanib, korpusdagi statistik tahlil metodi yordamida yozuvchi uslubini ham qisqa vaqtda aniqlash mumkin. Matnning statistik strukturasi deyilganda, shartli ravishda, ma’lum



matndagi turli so‘zlar miqdori bilan shu matnda uning qaytarilish-qaytalanish chastotasi orasidagi munosabat tushuniladi [Rahimov A.2011; 63].

Asarlarni lingvostatistik tahlilida undagi otlar, sifatlar, fe’llar, grammatik shakllar, jumalarning qurilish usuli kabi til birliklari yordamida ijodkorning idiositili, ya’ni o‘ziga xos yozish uslubi, yozuvchining so‘z qo‘llash mahorati aniqlanadi. Lingvostatistik tahlillar bizga matnning mazmuni, yozilgan davri va zaruriyat tug‘ilganda mualliflikni aniqlashga imkon beradi. F.Dostoyevskiy, L.Tolstoy, M.Sholoxov kabi yozuvchilarning matnlari atributsiyasini amalga oshirish natijasida asarlarning syujet qurilishi, matn strukturasi qiyosiy tahlil qilingan. “Statistika” termini lotincha “status” so‘zidan olingan bo‘lib, hodisalarning holati, ahvolini bildiradi [Abdullayev, 2002: 6]. Navoiyning turkiy tilda yozgan 2600 g‘azallarini statistik tahlil qilish orqali mutafakkirning so‘z qo‘llash mahorati, ijod uslubini, hatto asarlarida so‘zlarning qo‘llanish ko‘lamini ham aniqlash mumkin. Har bir davr, millat adabiyoti, o‘z uslubini namoyon etadi. Navoiyning so‘z imkoniyatlari turkiy adabiyotning o‘ziga xos yangi uslubini yaratdi.

“Xazoyin ul-maoniy”da g‘azallar hajmi 5 baytdan 13 baytgacha: 5 baytli – 2 ta, 6 baytli – 5 ta, 7 baytli – 1747 ta, 8 baytli – 58 ta, 9 baytli – 695 ta, 10 baytli – 19 ta, 11 baytli – 69 ta, 12 baytli – 1 ta, 13 baytli – 5 tani tashkil etadi. Demak, Navoiy lirikasida 7 baytdan 9 baytgacha hajmda bo‘lgan g‘azallar ko‘p. Alisher Navoiy mualliflik kotrpusini bu kabi statistik tahlillar muhim hisoblanib, foydalanuvchiga aniq hisobni beradi va ma’lumotlar bazasi ustida ishlash qamrovini ko‘rsatadi. Shu bilan bir qatorda shoir g‘azallarini lingvistik va lingvopoetik mezonlar asosida tadqiq etish orqali o‘zbek adabiy tilining tarixiy tadriji haqida aniq xulosa chiqarish mumkin[G‘ulomova, 2024: 38].

“Xazoyin ul-maoniy” kulliyotidagi 2600 g‘azalda Navoiyning ijod uslubi, so‘z qo‘llash mahorati, g‘azallarda qo‘llangan so‘zlar ko‘lamini, o‘ziga xos yozish uslubi *statistik tahlil* metodi yordamida aniqlandi. Alisher Navoiy mualliflik korpusiga g‘azallardagi so‘zlarni semantik teglab joylashtirishda, har bir g‘azalda, devonlarda, umumiy kulliyotda nechta so‘zshakl borligini aniqlash muhimdir.

1-jadval. “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotidagi devonlarda so‘zshakllar miqdori.

“G‘aroyib us-sig‘ar”	4975 bayt – 9950 misra	Jami 75 ming 350 ta, g‘azallarda 66 954 ta so‘zshakl
“Navodir ush-shabob”	4998 bayt – 9996 misra	Jami 71 ming 527 ta, g‘azallarda 66 596 ta so‘zshakl
“Badoye’ ul-vasat”	5001 bayt – 10002 misra	Jami 71 ming 580 ta, g‘azallarda 66 539 ta so‘zshakl
“Favoyid ul-kibar”	5029 bayt – 10058 misra	Jami 75 ming 911ta, g‘azallarda 66 722 ta so‘zshakl
Jami:	20003 bayt – 40006 misra	Jami 294 368 ta, g‘azallarda 266 811ta so‘zshakl

**mavjud.**

Ma’lumki, o‘zbek adabiyotida 5-10 baytli g‘azallar ko‘p uchraydi. “Xazoyin ul-maoniy”da g‘azallar hajmi 5 baytdan 13 baytgacha: 5 baytli – 2 ta, 6 baytli – 5 ta, 7 baytli – 1747 ta, 8 baytli – 58 ta, 9 baytli – 695 ta, 10 baytli – 19 ta, 11 baytli – 69 ta, 12 baytli – 1 ta, 13 baytli – 5 tani tashkil etadi. Demak, Navoiy lirikasida 7 baytdan 9 baytgacha hajmda bo‘lgan g‘azallar ko‘p. Alisher Navoiy korpusida bu kabi *statistik tahlillar* muhim hisoblanib, foydalanuvchiga aniq hisobni beradi va ma’lumotlar bazasi ustida ishlash qamrovini ko‘rsatadi. Shu bilan bir qatorda shoir g‘azallarini lingvistik va lingvopoetik mezonlar asosida tadqiq etish orqali o‘zbek adabiy tilining tarixiy tadriji haqida aniq xulosa chiqarish mumkin.

Alisher Navoiy korpusida semantik teglash xususiy negizga, ya’ni mohiyatga ega. Ma’lumki, XV asr tili hozirgi o‘zbek tilidan farq qiladi va bugungi kun o‘quvchisi uchun ko‘plab iste’modan chiqqan yoki shakliy ifodasi boshqa holatga o‘tgan leksik birliklar mavjud. Ularni biz izohtalab so‘zlar deymiz. Bunday so‘zlar izohini foydalanuvchiga aniqlashtirib bermasdan, uning semantik guruhi yoki semantik maydonini ko‘rsatish mantiqsizlik hisoblanadi. Shu bois, g‘azallar konseptuallik tamoyili asosida, ya’ni muayyan so‘z o‘zi bilan bir baytda kelgan boshqa so‘zlar qurshovida, baytning asosiy mazmunidan xulosalanib tahlil qilindi hamda ma’lumotlar bazasida semantik tasnifga ega bo‘ldi. “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotidagi devonlarda yuqorida qayd etilganidek, 20003 bayt (40006 misra), 266 811 ta so‘zshakl mavjud bo‘lib, korpus bazasiga quyidagi ma’lumotlar kiritildi.

2-jadval. Yangi tipdagi Alisher Navoiy mualliflik korpusi bazasidagi tahlilii ma’lumotlar.

Teglan gan so‘zlar	M aqol	I bora	Ta lmeh	Ta nosib	T azod	Ta shbih	T asdir	T asbe’
266 811 ta	1 24	9 2	88 3	30 00 mingda n ortiq	2 53	12 4	1 45	3 2

Korpus bazasiga kiritiladigan har bir izohtalab leksema uchun informatsion qidiruv imkoniyatlari mavjud bo‘lib, ular quyida ko‘rsatilgan tizimli ketma-ketlik asosida ishlaydi:

- korpus bazasiga kiritiladigan ma’lumotlarni jamlash;
- korpus bazasiga kiritiladigan ma’lumotlarni maxsus tartib asosida tasniflash;
- so‘z(shakl)larning qidiruv obrazini yaratish;
- bazada ma’lumotlarni qidiruv uchun qulay tarzda kiritish va saqlash;
- korpus bazasiga kiritiladigan ma’lumotlar asosida qidirish va natijani chiqarish.



9	h	tong	bo'lmog'ung
7	sub	subh –	Jamoling subhi ochib erdi yuz gul
6	hi	tong	
1	sub	subh –	Ne subhg'a bu sabohat, ne mehr muncha
01	hg'a	tong	sabih
1	sub	subh –	Vasl subhin to abad ko'z tutmasun
48	hin	tong	ushshoq aro
1	sub	subh –	Qamarg'a subhdin ravnaq, quyoshqa
61	hdin	tong	shomdin zavar
1	sub	subh –	Shomi hijron subhidek bag'rimni chok
70	hidek	tong	etti sipehr
3	sub	subh –	Garchi ruxsori erur subhi dilafro'z, valek
34	h	yuz yorug'ligi	
4	sub	subh –	Subhning bir nafase asra damin
48	hning	tong	

Korpus bazasiga ma'lumotlarni kiritishda qo'yiladigan asosiy talablardan biri materiallar mashina formatida qayta ishlanishi kerak. Bu elektron formatga o'tkazilgan matnlardagi har bir lingvistik birlik ustida statistik, grammatik va semantik amallarni bajarishga zamin yaratadi. Mazkur tadqiqotimizda Alisher Navoiy korpusi uchun obyekt sifatida tanlab olingan 1950 ta g'azal 1) uch devonning pdf formatidan qayta ishlash va mashina o'qishi uchun word formatga o'tkazildi; 2) g'azallar tahrirlandi; 3) kirill yozuvidan lotin grafikasiga o'tkazilib, asosiy imlo qoidalariga muvofiq qayta tahrir qilindi; 4) g'azaldagi lingvistik birliklar grammatik teglandi; 5) izohtalab so'zlarga semantik tavsif berildi; 6) "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotidagi lingvistik birliklar semantik teglandi. Semantik teglarga ega birliklar, 12ta semantik guruhni tashkil etdi; 7) baytlardagi irsoli masal, talmeh, tasbe', tasdir, tanosub, tazod san'atlariga oid birliklar jamlandi; 8) tarixiy so'zlar, jumladan, arxaizm va istorizmlar bazasi shakllantirildi, arxaizmlarning bugungi kundagi muqobillari berildi [Abjalova, G'ulomova, 2023: 19].

Teglash jarayonida Alisher Navoiy g'azallarida bir misrada muayyan so'z kollokatsiya holatida kontekstual ma'noni bera olishi, aniqrog'i, Alisher Navoiy nazarda tutgan ma'no butunligi yuzaga kelishi e'tiborga olinib, muayyan bir ma'noni beruvchi so'z birikmalari bitta semantik guruhga kiritildi, bunday holda ular bitta belgi bilan kodlanadi. Masalan, 590-g'azalning "Dayr aro tushsa falak engiga xirqam yuruni" misrasidagi izohtalab so'zlar semantik teglanganida maxsus 13536 kod raqami misradagi barcha so'zshakllariga biriktirib chiqiladi. Bu, birinchidan, misrani mashinaga tanitish usuli hisoblansa, ikkinchidan, ushbu satrdagi so'zlarga berilgan semantik tavsif aynan 13536 kodga ega 590-raqamli g'azalga mansub semantik izoh ekanligini mashina qabul qilinadi.

4-jadval. Misralarning kodlanishi



10691	13536	Dayr aro tushsa falak engiga xirqam yuruni.	590
10692	13537	Dahr bog‘ida nechuk vasl guli butsumkim,	590
10693	13538	Hajr o‘qিদur yog‘ini, ashk suyidur juvuni.	590
10694	13539	Gar Navoiy so‘ngakiga tutashur ko‘nglidin o‘t,	590
10695	13540	Ne ajab, ishq o‘tidur ulu bu aning o‘tuni.	590
10696	13541	Ul quyosh oqyda-yu men muztaribmen har sari	591
10697	13542	Uylakim, fonusdin parvona qolg‘ay tashqari.	591

4-jadvalda ko‘rsatib o‘tilgan misradagi: 1) *dayr – dunyo*; 2) *falak – osmon*; 3) *eng – yuz*; 4) *xirqa – eski juldur kiyim*; 5) *yurun – yamoq* so‘zshakllari 13536 raqam bilan identifikatsiyalangan.

5-jadval. Misradagi so‘zlarga semantik tavsif biriktirilishi

11970	590	Dayr	dayr – dunyo	13536
11971	590	engiga	eng – yuz	13536
11972	590	falak	falak – osmon	13536
11973	590	yuruni	yurun – yamoq	13536
11974	590	xirqam	xirqa – eski juldur kiyim	13536
11975	590	Hajr	hajr – ayriliq	13538
11976	590	yog‘ini	yog‘in – yomg‘ir	13538
11977	590	ashk	ashk – ko‘z yosh	13538
11978	590	juvuni	juvun – daryo	13538

Teglashning boshqa turlarida bo‘lgani kabi semantik tegning ham yagona shakli bo‘lmaydi. So‘zlarni semantik teglash jarayonida harf va raqamlardan iborat ramzlardan foydalaniladi.

“Xazoyin ul-maoniy” kulliyoti g‘azallaridagi izohtalab so‘zlarning semantik ifodasi teglanib, korpusga jamlanishi Alisher Navoiy mualliflik korpusi bazasining boyitilishiga erishiladi va o‘zbek milliy korpusshunosligimizning taraqqiyotiga bir hissa bo‘ladi.

Navoiy yashagan davr leksikologiyasi bilan hozirgi leksika ko‘p jihatlari bilan farqlanadi, xususan, g‘azallarda uchragan arxaizm, istorizmlarning hamda ma’no torayishiga uchragan izohtalab leksemalarning tushunarli, o‘qishli bo‘lishini ta’minlash uchun ularni semantik teglash va leksik, morfologik tahlil qilish lozim. Korpus bazasida ko‘p ma’noli so‘zlarning misralarda ifodalab kelgan har bir ma’no munosabatini e’tiborga olib, semantik guruhlarga ajratish, foydalanuvchining so‘z boyligini oshishida yordam beradi. Mualliflik korpusini yaratishda korpus bazasiga kiritiladigan matnlarning semantik xususiyatlarini kengroq yoritib berish, ijodkor foydalangan leksemalarni bir teg ostida leksik guruhlarga ajratish muhim hisoblanadi. G‘azaldagi so‘zlarni leksik-semantik guruhlarga ajratish orqali shoirning uslubini, so‘zni qo‘llash mahoratini, aniq va to‘liq tarzda, qisqa vaqt ichida bilish imkoniyati mavjud bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullaev Yo. Statistika nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2002. – B.148.
2. Abjalova M. Tagging and Annotation of Corpus Units. // International Journal of Language Learning and Applied Linguistics ISSN: 2835-1924 Volume 2 | No 12 | Dec -2023. – PP. 103-107. <https://inter-publishing.com/index.php/IJLLAL/article/view/3228/2733>



3. Abjalova M., Gulomova N. Author’s Corpus of Alisher Navoi and its Semantic Database. // IEEE – UBMK – 2022: 7th International Conference on Computer Science and Engineering. 24-26 September 2022. – Diyarbakir, Turkey. – pp. 182-187. Impakt Factor 5.5. DOI: 10.1109/UBMK55850.2022.9919546
4. Abjalova M.A., G‘ulomova N.S. Alisher Navoiy korpusini yaratish texnologiyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti. O‘zbekiston: til va ma’naviyat. Lingvistika. ISSN 2181-922X. 2023 Vol. 4 (1). – B.14-32.
5. Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy. 1-4-jildlar. – Toshkent: Tamaddun, 2011.
6. G‘ulomova N. Alisher Navoiy mualliflik korpusi uchun “Navodur ush-shabob” devonidagi g‘azallarni grammatik teglash xususiyatlari. Ўзбекистон Миллий университети хабарлари. – Тошкент. ISSN 2181-732472-752024. №1/3/1. – Б.72-76.
7. G‘ulomova N. Alisher Navoiy mualliflik korpusi uchun “Xazoyin ul-maoniy” kulliyoti g‘azallarining tanlanishi. O‘zMU xabarлари // Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti ilmiy jurnali. – Toshkent, 1/6 2024. ISSN: 2181-7324. – B.38.
8. Korpus lingvistikasi. [Matn]: uslubiy qo‘llanma / M.A. Abjalova. –Toshkent: Nodirabegim, 2022. – 110b.
9. Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2011. – B.112.



MUNDARIJA

<i>Sirojiddinov Shuhrat</i>	O'zbek tili – xalqaro maydonda!	
I SHO‘BA. O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA TILSHUNOSLIKNING NAZARIY MASALALARI		
<i>Ashirboyev Samixon</i>	O'zbek adabiy tilining tayanch dialektini belgilash yo'lida	6
<i>Hakimova Muhayyo, Rahmatova Feruza</i>	O'zbek tilida kognitiv metonimiya	11
<i>Juraqobilova Xamida</i>	She'riy asarlarda kognitiv metaforalar shakllanishida lingvomadaniy omillarning ta'siri	17
<i>Mustafayev Fizuli</i>	Kino dilində söz birləşməsi və qoşa sözlər haqqında	24
<i>Jabborov Baxrom, Sharipova Sarvinoz, Istamova Shohista.</i>	O'zbek iboralarining milliy mentalitetni ifodalashdagi o'rni	32
<i>Turdiboyev Tohir</i>	Yordamchi so'zlar masalasiga doir ayrim qarashlar	37
<i>Abjalova Manzura</i>	Hozirgi o'zbek tili leksik sathiga doir ba'zi masalalar	42
<i>Sheronov Boyirboy</i>	Sintaktik sathda mazmuniy-shakliy nomutanosiblik haqida	50
<i>Madjidova Dilorom</i>	Современные методы и проблемы прикладного языкознания	54
<i>Tolipova Dildora</i>	Лакуны в узбекских письменных литературных источниках и проблемы их перевода	59
<i>Elova Dilrabo</i>	O'zbek tilshunosligida uslubiy xoslanishni farqlash xususidagi qarashlar	67
<i>Abdullayev Jumanazar</i>	Yangi O'zbekistonning mumtoz tilshunoslik merosi, zamonaviy lingvistik qadriyati	73
<i>Israilova Saodat</i>	Turk va o'zbek tillarida rang bildiruvchi leksemalar semantikasi	84
<i>Kasimova Ziyoda</i>	Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanidagi frazeologik birliklarning badiiy-uslubiy tahlili	88
<i>Baxodirova Shaxlo</i>	Lakuna va realiya munosabati	92



<i>Hakimov Dilshod</i>	“Biz” va “o‘z” olmoshlarining o‘zbek tilidagi funksional maqomi: struktur-semantik tahlil	98
<i>Kurbanbayev Otabek, Qodirberganova Dilnura</i>	O‘tkir Hoshimov asarlarida so‘z birikmasining turlari O‘tkir Hoshimov asarlarida so‘z birikmasining turlari	107
<i>Allaquliyeva Qunduz</i>	Ixtionimlarning lingvistik va ekstralingvistik omillar asosida yangi ma’no ifodalashi	113
<i>Isoqulova Qunduz</i>	So‘z-gaplarning noverbal vositalar bilan ifodalanishi	117
<i>Ismayilli Ayshen</i>	Sintaktik yolla yaranan mikrotoponimlar xulasə	122
<i>Davronova Zarnigor</i>	Sadriddin Ayniyning “Sudxo‘rning o‘limi” qissasidagi antroponimlarining kognitiv-semantik tahlili	132
<i>Muzaffarova Zarrina</i>	Metonimiyaning konseptual modellari	136
<i>Yusupova Aziza</i>	Metaforaning she’riy matnlarda aks etishi	140
<i>Mamarasulova Maftuna</i>	Fonosemantik g‘oyalarning rivojlanish bosqichlari	146
<i>Abdurasulova Dilnoza</i>	Ayollar nutqida konnotatsiya va murojaat birliklarining pragmatik xususiyatlari	151
<i>Soqiyeva Shirin</i>	Tilshunoslikda konseptni o‘rganishda til va madaniyatning o‘rni	157
<i>Abruyeva Zaxro</i>	O‘zbek tilidagi murojaat shakllarining konseptual tuzilishi	160
<i>Bovmanova Bashorat</i>	O‘zbek tilida halollik tushunchasining leksik-semantik ifodalanishi	164
<i>Jumaniyozova Charos</i>	Hajm-o‘lchov bildiruvchi sifatlarning nisbiylik xususiyati	168
<i>Xayrullayeva Ra’no</i>	Kichraytirish qo‘shimchalarining nutqdagi ahamiyati	172
<i>Tursunova Sojidxon</i>	“Fayzining amakisi” hikoyasidagi nutqiy akt vositasida ifodalangan ironiyalar tahlili	177



<i>Utegenova O'g'iloy</i>	Badiiy asarlarda tasviriy ifodalar	181
<i>Maxmudova Matluba</i>	Qaratqich kelishigi semantikasiga doir ayrim mulohazalar	185
<i>Xolmamatova Sarvinozxon</i>	Konnotatsiya va konnotativ birliklarning o'rganilganlik darajasi hamda turlari	191
<i>Turg'unboyeva Dilnoza</i>	Zamonaviy tilshunoslikda miqdor kategoriyasining o'rni	199
<i>O'ralova Nargiza</i>	Parsellyatsiya va metaforaning o'zaro aloqadorligi	204
<i>Jabborova Aziza</i>	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqidagi evfemizmlarning morfologik tahlili	209
<i>Odilova Dilobar</i>	Jahon tilshunosligida o'xshatishlarning ilmiy tadqiqi	214
<i>Nazarov Qobilbek</i>	Turli tizimdagi tillarda soma komponentli maqollarning tasniflanishi	218
<i>Mullaboyeva Shirin</i>	Til, estetik tafakkur va didning paremiologik birliklarda ifodalanishi	226
<i>G'aybullayev Erkinjon</i>	O'zbek madaniyatini ifoda etishda lakunalarning roli: Cho'lpon asarlari misolida	230
<i>Oripova Mavluda</i>	Sinestezik metaforalarning lingvomadaniy xarakteri:sinestezik metafora va milliy o'ziga xoslik	240
<i>Otaxonova Sohiba</i>	Antroponimlarning internet va yangi media makonidagi o'rni	245
<i>Shodmonaliyeva Yulduz</i>	Modallik bilan tasdiq-inkor kategoriyasining o'zaro munosabati	250
<i>Sobirova Maftuna</i>	Konchilik terminotizimi va uning o'zbek leksik tizimidagi o'rni	256
<i>Umarova Shahzoda</i>	O'zbek tilshunosligining kombinator lingvistikaning shakllanishidagi o'rni	260
<i>Turg'unova Maftuna</i>	Til taraqqiyotida kognitiv tilshunoslikning o'rni	270
<i>Muratova Nafisa</i>	Tilak va tabrik nutqiy aktida ekstralingvistik	274



	vositalarning o'rni	
<i>Murotov Hamro</i>	Reklama matnlarining tasnifi	280
<i>Normuminov Laziz</i>	Qo'chqor Norqobil hikoyalarda xalqona so'zlashuv, ibora va maqollarning qo'llanishi	285
II SHO'BA. AMALIY TILSHUNOSLIK VA LINGVODIDAKTIKA MUAMMOLARI.		
<i>Xolmanova Zulxumor</i>	Tilning ma'lumotlarni saqlash va yetkazish funksiyasi	289
<i>Qurbonova Munavvara</i>	Ontolingvistika va pragmalolingvistika munosabatida deyktik birliklarning o'rni	297
<i>Ruzibayeva Nigoraxon</i>	Psychological needs in the language classroom	303
<i>Abdurahmonova Muqaddas</i>	Ментальные омонимы в когнитивной лингвистике	308
<i>Umurzoqova Marhabo</i>	Badiiy matnda ayol lisoniy shaxs tiplari xususida	317
<i>Abjalova Manzura</i>	O'zbek tili multikorpusi – zamonaviy ta'limiy tizim	321
<i>Ruzmetova Novval</i>	Роль узбекских народных традиций в социокультурном развитии студентов	326
<i>G'ulomova Nargiza</i>	Alisher Navoiy mualliflik korpusini yaratishda statistik ma'lumotlarning muhimligi	335
<i>Dedaxanova Muazzam</i>	Lingvistik ekspertizaning yuzaga kelishi va shakllanish tarixi	344
<i>Shamsiyeva Manzura</i>	Animatsion filmlarning aksiolingvistik jihatlari	347
<i>Xudaykulova Shaxnoza</i>	O'zbek tili diskursida global qadriyatlarining aksiolingvistik integratsiyasi	353
<i>Ibragimova Sayyora</i>	Псевдонимы узбекских и русских писательниц: генезис, семантика и когнитивные особенности	357
<i>Tilyabayev Kamil</i>	Благодарные: из эмоционального опыта	361



	изучения узбекского языка как второго	
<i>Alimardanov Elyor</i>	Xorazm dialektal zonasining qipchoq shevali areallari	369
<i>Bozorova Sabohat</i>	Gazeta tili va publitsistik janrlarning lingvostilistik xususiyatlari	372
<i>Abduvoxidova Mavzuna</i>	Обучение грамматике в условиях коммуникативного подхода	377
<i>Mamadayupova Vasila</i>	Katta yoshdagilarning xorijiy til o'rganishi	381
<i>Azizova Feruza</i>	Raqamli texnologiyalarning til evolyutsiyasiga ta'siri: XXI asrda yozma va og'zaki muloqotning transformatsiyasi	385
<i>Abdullayeva Roxila</i>	Xarakter ifodalovchi birliklarning freym tahlili	389
<i>Yusupova Shahzoda</i>	Suggestiv nutq ta'sirchanligini oshirishda sifatlarning o'rni	393
<i>Mamirova Xayriniso</i>	Ko'p ma'noli so'zlarni qayta ishlashning gibridd modellari	398
<i>Nabiyeva Parvina</i>	Assotsiativ tezaurus: til tasviri va inson ongining modellashtirilishi	405
<i>O'rinova Zarifa</i>	Iqtiboslarning intertekstual tezaurusda aks etishi	410
<i>Rayimjonova Matluba</i>	Rauf Parfi she'riyati leksikasini chastotali lug'at asosida tadqiq qilish muammolari va yechimlari	414
<i>Turobova Nargiza</i>	Ulug'bek Hamdam ijodining lingvopragmatik tahlilida presuppozitsiya	418
<i>Abdullajonova Madina</i>	"Fiziologik xatolar"ni disgrafiyadan farqlash masalasi	424
<i>Pulatova Umriniso</i>	Yoshlar slengining ayrim o'ziga xos hududiy xususiyatlari	428
<i>Imomova Ismigul</i>	Dramatik matnlarda qo'llanilgan barqaror birikmalar va maqollarning intertekstual ohang va mazmunini boyitishdagi roli	435
<i>Arolova Nafisa</i>	Til o'zlashtirishda leksik portlash hodisasi	440
<i>Tursunboyeva Fayiza</i>	Korpus lingvistikasining diniy matnlardagi o'rni	443



<i>Amrullayeva Mohinur</i>	O'zbek tilidagi ayrim fe'l-atvor frazemalarining semantik tasnifi va uslubiy xususiyatlari	450
<i>Mirnosirova Dilbar</i>	Bolalar verbal assotsiatsiyalarining ayrim sintaktik xususiyatlari	454
<i>Aminova Zilola</i>	Darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'zga tili o'quvchilarning nutqini o'stirish	462
<i>Muratova Ademi</i>	Multilingualism and bilingualism in turkic-speaking countries: contemporary challenges and development prospects	466
<i>Umurzakova Zuxraxon</i>	Ona tili darslarida interaktiv raqamli resurslarni tatbiq etishning didaktik qulayligi	472
<i>Maxmudjonova Nargizaxon</i>	Tilshunoslarga bog'lab berilgan tomorqa...	477
III SHO'BA. MADANIYATLARARO MULOQOT VA O'ZBEK TILI TARAQQIYOTI		
<i>Uluqov Nosirjon, Solixodjayeva Xavasxon</i>	O'zbek sayillari va ayrim turk bayramlarining etnolingvistik hamda lingvokulturologik tahlili	481
<i>Mirzodjanova Malika</i>	Сравнительный семантический анализ употребления английских “over”, “above” и их таджикских эквивалентов	489
<i>Komilova Gavharoy</i>	Nutq tadqiqida yangi yondashuvlar	484
<i>Pulatova Zamira</i>	Роль межкультурной коммуникации в процессе изучения языков	497
<i>Moldokulova Elina</i>	Сохранение узбекской культурной идентичности через язык и традиционный костюм в эпоху глобализации	501
<i>Yo'ldoshxonov Javohirbek</i>	Микротопонимы как ономастическая реалия: сравнительный анализ ташкента и лондона	505
<i>Abduqodirova Zebo</i>	The role of lingvocultural competence in the translation of specialized ecological texts. (English and Uzbek languages)	509



<i>Otamirzayeva Sug'diyona</i>	Teaching legal english in uzbek context: challenges of terminology	514
<i>Sayfiyeva Komila</i>	Fitonim komponentli o'zbek va ingliz maqollarining madaniyatlararo qiyosiy tadqiqi	521
<i>Madjidova Maftuna</i>	Лингвосоматические единицы которые характерные для арабской культуры	529
<i>Xasanova Sohijamol</i>	Ingliz va o'zbek tillarida "yaxshilik" va "yomonlik" kategoriyalarining lingvokulturologik tahlili	534
<i>Lafasova Mavjuda</i>	Xorij tilshunosligida o'xshatishlar tadqiqi	539
<i>Olimova Mushtariybonu</i>	O'zbek va ingliz xalq maqollaridagi "omad" va "omadsizlik" konseptlarining qiyosiy tahlili	544
IV SHO'BA. O'ZBEK TILINING XORIJDA O'QITILISHI VA O'ZARO HAMKORLIK MASALALARI		
<i>Akalin Ahmet</i>	<i>Kültür Taşıyıcısı Olarak Özbek Dilinin Diplomatik Fonksiyonu</i>	549
<i>Rahmonqulov Abdunazar</i>	O'zbek va tojik tillari interferensiyasi haqida	555
<i>Rafibayeva Nasiba, Mingboyeva Oypari</i>	Лингвистика и страноведческий аспект в преподавании иностранного языка	559
<i>Xakimova Mavzunadjon</i>	Лингвистическое табу и стратегия эвфемизации в таджикском и английском языках	563
<i>Musurmankulova Shaxribon</i>	Turk tiliga xos ayrim frazemalar tahlili	569
<i>Xodjayeva Mashhura</i>	Влияние глобализационных тенденций на методику обучения иностранным языкам	576
<i>Erkaboyeva Havojon</i>	Translation studies and the internationalization of the uzbek language	581



<i>Axmedova Niluzar</i>	Emotsional leksikaning semantik-pragmatik talqini: ingliz va o'zbek tillari misolida	584
V SHO'BA. TIL TARIXI VA TURKIY TILLAR TADQIQOTLARI		
<i>Seyhan Tanju</i>	Ali Şir Nevâyî ve Üslubunda Fiillerin Yeri	589
<i>Abdushukurov Baxtiyor</i>	O'zbek tilining tarixiy takomili va buguni	604
<i>Rahimi Farhad</i>	Nezrali'nin Çağatay Türkçesi Sözlüğünün Yanlışları Üzerine	611
<i>Jafarzade Vahide</i>	Mustafa Zəririn "Siyərün-nəbi" əsəri haqqında bəzi qeydlər	640
<i>Muhammadiyahva Dilafro 'z</i>	"Boburnoma" parallel korpusini yaratishdagi tarjima tamoyillari	650
<i>Bo'ronov Anvar</i>	Poloves-qipchoq tillari maishiy leksikasi milliy identifikatsiyalash mezoni sifatida	657
<i>Xo'janiyazova Shahnoza</i>	Alisher Navoiyning "Sab'ai sayyor" asaridagi idish-tovoq nomlarining leksik-semantik xususiyatlari	665
<i>Xolmurodova Mushtariy</i>	"Nasoyim ul-muhabbat" asaridagi tibbiy terminlar tahlili	670
<i>Mirzayeva Ulker</i>	Yunan mənəbələrində işlənən Azərbaycan antroponimlərinin leksik-semantik təhlili	676
<i>Babazade Rahshane</i>	Mustafa Zəririn "Yüz hədis və yüz hekayə" əsərində zərflər	684
<i>Yodgorov Hamid</i>	"Qo'noq" umumturkiy leksemasining etimologiyasi	697
<i>O'razova Iqbol</i>	Frazemalar kognitiv semantikaning o'rganish obykti sifatida	701
<i>Azizzade Turkan</i>	R.O.Şor Yafəs-türk dil əlaqələri haqqında	705
<i>Saygin Muhterem</i>	Klasik Türk Edebiyatının Doğu Sahasında Sevgili İçin Kullanılan Bir İfade Körke Bay (Körkke Bay,	711



	Görge Bay)	
<i>Hamishog'lu Meryem</i>	Türkçenin İlk Sözlüğü Dîvânu Lugâti't-Türk'ten Özbek Türkçesine Bitki Adları	718
<i>Bakirov Qudratillo</i>	Turkiy dunyoda vaqt tushunchasi va uning o'rganilishi	734
<i>Sattorova Shahnoza</i>	O'zbek va turk tillarida bir xil etimologiyaga ega o'simlik nomlarining qiyosiy tahlili	739
<i>Maqsudova Feruza</i>	Muqaddas qadamjo nomlari – onomastika sohasining o'rganish obyekti sifatida	745
<i>Azizova Nilufar</i>	“Devonu lug'otit turk”dagi o'z qatlamga oid ijtimoiy munosabat semali leksemalar	750
<i>O'tkirbek Muhammad Sobir</i>	Arba'in she'rlarda “hayit” so'zining lingvopoetik timsollari	756
<i>Siddiqova Naimaxon</i>	Eskirgan so'zlarning eskirmagan ma'nolari	760
<i>Qasimova Sema</i>	“Kitabi-Dədə Qorqud” matnlərində qadin-kishi müraciət formalarinin üslubi, linqvistik və psixolinqvistik tahlili	766
<i>Turdiyeva Roza</i>	O'zbek, qoraqalpoq va ingliz tillaridagi maqollarda zoonimlarning umumiy va milliy xususiyatlari	774